ANDIJON VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik

## 2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

# Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik

**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi, % da**




**2020- yil**




**2021- yil**




**2022- yil**

2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YAIM**dagi ulushi **65,9** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **11,5** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-iyunida **3354** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **9,8** foizga ko‘p demakdir.

## 2022- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **1053** ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **1026** ta, sanoatda **591** ta, qurilishda **140** ta, yashash va ovqatlanishda **99** ta, tashish va saqlashda **86** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI UZSTAT

## 2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da

| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 98,6 |
| Sanoat | 19,5 |
| Qurilish | 97,0 |
| Investitsiya | 52,7 |
| Savdo | 86,9 |
| Xizmatlar | 67,1 |
| Eksport | 39,2 |
| Import | 9,8 |

| | |
|---|---|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 37 615 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 3 354 |

2022- yilning yanvar-iyunida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

## Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2022- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar , % da

- Savdo — 33,7 %
- Sanoat — 25,3 %
- Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi — 9,4 %
- Qurilish — 8,7 %
- Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar — 5,2 %
- Tashish va saqlash — 3,7 %
- Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish — 2,7 %
- Axborot va aloqa — 1,5 %
- Boshqa faoliyat turlari — 9,7 %




1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

## Tuman va shaharlar bo‘yicha 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Shahar va tumanlar bo‘yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

| Shahar / tuman | 2021- y. yanvar-iyun | 2022- y. yanvar-iyun |
|---|---|---|
| Andijon sh. | 800 | 571 |
| Xonobod sh. | 67 | 45 |
| Oltinko‘l | 141 | 166 |
| Andijon | 264 | 286 |
| Baliqchi | 217 | 333 |
| Bo‘ston | 115 | 114 |
| Buloqboshi | 116 | 104 |
| Jalaquduq | 111 | 146 |
| Izboskan | 139 | 208 |
| Ulug‘nor | 59 | 61 |
| Qo‘rg‘ontepa | 147 | 198 |
| Asaka | 257 | 264 |
| Marhamat | 128 | 169 |
| Shahrihon | 196 | 280 |
| Paxtaobod | 153 | 210 |
| Xo‘jaobod | 144 | 199 |

## 2022- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo‘yicha ulushi, % da

2022- yilning yanvar-iyunida viloyat bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Andijon shahri – 15,2 %, Baliqchi tumani – 9,9 %, Andijon tumani - 8,5 %, Shahrihon tumani – 8,3 %, Asaka tumani – 7,9 %, Paxtaobod tumani – 6,3 %, Izboskan tumani - 6,2 % hissalariga to‘g‘ri keldi.



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Yanvar-iyunda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




Ma’lumot uchun: 2022- yil yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘p salmog‘i, birlikda:

Savdoda
1053 ta

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida
1026 ta

Sanoatda
591 ta

Qurilishda
140 ta

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2022- yil 1-iyul holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 11,5 birlikni tashkil etdi.

**Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 1-iyul holatiga ko‘ra***




**2022- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra tuman va shaharlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)***

2022- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Andijon shahrida 24,9 birlik, Xonobod shahrida 17,5 birlik, Xo‘jaobod tumanida 14,0 birlik, Bo‘ston tumanida 12,7 birlik, Ulug‘nor tumanida 11,0 birlikni tashkil etgan.




** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2022- yilning 1- iyul holatiga koʻra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar boʻyicha eng yuqori koʻrsatkich Andijon shahrida **24,9** birlik, Xonobod shahrida **17,5** birlik, Xoʻjaobod tumanida **14,0** birlik Boʻston tumanida **12,7** birlik, Ulugʻnor tumanida **11,0** birlik, Asaka tumanida **10,5** birlik, Baliqchi tumanida **9,8** birlik, Andijon tumanida **9,7** birlik, Oltinkoʻl tumanida esa **9,6** birlikni tashkil etdi.

## Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil 1- iyul holatiga koʻra*

**Eng yuqori koʻrsatkich**
**Andijon shahri**
**- 24,9 birlik.**

**Oʻrtacha koʻrsatkich**
**Ulugʻnor tumani**
**- 11,0 birlik.**

**Past koʻrsatkich**
**Buloqboshi tumani**
**- 7,4 birlik.**

## 2022- yilning 1- iyul holatiga koʻra har 1000 aholiga toʻgʻri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng koʻp tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *




*Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xoʻjaliklarini qoʻshgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 222,1 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 39,2 % ini tashkil etdi.



**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi**




**2022- yilnig yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da**




2022- yil yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Buloqboshi tumanida – 100 %, Ulug‘nor tumanida – 100 %, Andijon tumanida – 88,7 %, Xonobod shahrida – 79,7 %, Shahrihon tumanida – 76,1 % va Bo‘ston tumanida 70,5 % ni, eng past ko‘rsatkich Asaka tumanida – 10,2 % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **149,8** million AQSH dollarini yoki umumiy importning **9,8** % ini tashkil etdi.




**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi**



2022- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida – 100 %, Jalaquduq tumanida – 97,8 %, Bo‘ston tumanida – 96,9 %, Qo‘rg‘ontepa tumanida – 93,6 %, Ulug‘nor tumanida – 82,5 % ni tashkil etdi. Eng past ko‘rsatkich Asaka tumanida – 1,0 % ni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati

**2022- yilning yanvar-iyunida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**




2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4696,5** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (678,7 mlrd. so‘m), Xo‘jaobod (601,1 mlrd. so‘m), Shahrihon (495,9 mlrd. so‘m), Qo‘rg‘ontepa (344,8 mlrd. so‘m) va Andijon (318,3 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Bo‘ston tumanida (92,1 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati






**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi**

2022- yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **19,5** % ni tashkil etdi.

## 2022- yil yanvar-iyun holatiga shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Buloqboshi tumani (100 %), Andijon tumani (83,6 %), Shahrihon tumani (82,3 %), Ulug‘nor tumani (76,7 %), Xo‘jaobod tumani (67,5 %), Bo‘ston tumani (59,6 %), Oltinko‘l tumani (58,3 %), Jalaquduq tumani (55,3 %), Baliqchi (45,5 %) va Qo‘rg‘ontepa (44,2 %) tumanlari tashkil etdi. Asaka tumanida (2,0 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo‘lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **8001,4** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **86,9** % ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **107,9** % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (**1976,0** mlrd. so'm), Shahrihon (**1057,7** mlrd. so'm), Asaka (**788,4** mlrd. so'm), Qo'rg'ontepa (**545,4** mlrd. so'm), Andijon (**506,5** mlrd. so'm), va Baliqchi (**442,0** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**2022- yilning yanvar- iyunida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3000,2** milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **97,0** % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **105,8** % ni tashkil qildi.



Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (1016,1 mlrd. so‘m), Andijon (276,5 mlrd. so‘m), Shahrihon (249,4 mlrd. so‘m), Oltinko‘l (182,6 mlrd. so‘m), Paxtaobod (162,7 mlrd. so‘m), Asaka (142,5 mlrd. so‘m) hamda Marhamat (128,2 mlrd.so‘m) tumanlarida qayd etildi.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati

**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi**






2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5402,2** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **67,1**% ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **111,6** % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Andijon shahri (1850,8 mlrd. so‘m), Andijon (330,2 mlrd. so‘m), Izboskan (273,7 mlrd. so‘m), Paxtaobod (271,8 mlrd. so‘m), Shahrihon (269,5 mlrd. so‘m), Asaka (261,9 mlrd. so‘m) va Marhamat (253,7 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati**



# 2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko‘rsatkichlari

**2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:**




Yuk tashishda




Yuk aylanmasida




Yo‘lovchi tashishda




Yo‘lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 94,2 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 101,7 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 67,7 % ni tashkil etgan bo‘lib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 101,7 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,0 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 101,0 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 96,8 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 101,3 % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil II chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnomada **966** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 330 (34,2%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 563 (58,3%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 73 (7,5%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

**2022- yil II chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 36,7 % (355 ta), xizmatlar sohasida – 25,2 % (242 ta), sanoatda – 21,9 % (212 ta), qurilishda – 8,9 % (86 ta) , qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 7,3 % (71 ta) ni tashkil etdi.



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2022- yil II chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahri (129 ta), Andijon (108 ta), Shahrihon (92 ta), Asaka (84 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2022- yil II chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo‘yicha taqsimlanishi, % da**



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




## 2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2022- yilning II choragida o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi xizmatlar sohasida – 39,2 %, savdoda 35,8 % ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 33,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi qurilishda – 68,6 % ni, sanoat sohasida – 60,4 % ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 57,7 % ni tashkil etdi.

2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig **yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi xizmatlar sohasida 45,9 % ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 45,0 % ni, savdo sohasida 44,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi qurilishda 60,5 % ni, sanoatda – 53,3 % ni, savdoda 49,3 % ni va xizmatlar sohasida 49,1 % ni tashkil etdi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2022- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da

| | O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar | | |
|---|---|---|---|
| | Ko‘payish (yaxshilanish*) | o‘zgarishsiz | Kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 38,2 | 55,3 | 6,5 |
| Band bo‘lganlar soni | 20,0 | 70,9 | 9,1 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 38,9 | 52,6 | 8,5 |
| Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari | 27,6 | 64,6 | 7,8 |
| Raqobat muhiti* | 42,2 | 51,3 | 6,5 |

| | Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli | | |
|---|---|---|---|
| | Ko‘payish (yaxshilanish*) | o‘zgarishsiz | kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 45,7 | 50,5 | 3,8 |
| Band bo‘lganlar soni | 28,7 | 66,1 | 5,2 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 40,7 | 53,6 | 5,7 |
| Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari | 31,0 | 63,1 | 5,9 |
| Raqobat muhiti* | 44,7 | 49,1 | 6,2 |

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2022- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da




## 2022- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da

